

YOSHLAR ORASIDA IJTIMOYIY FAOLLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI

Mahmudova Gulnoza Ikromjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti, Ijtimoiy ish yo‘nalishi talabasi.

gulimaxmudova076@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15319182>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar orasida ijtimoiy faollikni oshirishning ahamiyati, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari yoritilgan. Unda yoshlarning jamiyat hayotidagi o‘rni, ijtimoiy faollik darajasi va uni rivojlantirishga qaratilgan amaliy choralar haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, mavjud to‘siqlar, ularni bartaraf etish mexanizmlari hamda davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi sa’y-harakatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy faollik, jarayon, islohot, yoshlar, ijtimoiy rivojlanish.

WAYS TO INCREASE SOCIAL ACTIVITY AMONG YOUTH

Abstract. This article highlights the importance of increasing social activity among young people, the problems in this regard and ways to solve them. It discusses the role of young people in society, the level of social activity and practical measures aimed at its development. At the same time, existing obstacles, mechanisms for their elimination, and the efforts of state and public organizations in this regard are studied.

Keywords: social activity, process, reform, youth, social development.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В статье подчеркивается важность повышения социальной активности молодежи, проблемы в этой связи и пути их решения. В нем обсуждается роль молодежи в обществе, уровень социальной активности и практические меры, направленные на ее развитие. При этом изучались существующие препятствия, механизмы их преодоления, а также усилия государственных и общественных организаций в этом направлении.

Ключевые слова: социальный активизм, процесс, реформа, молодежь, социальное развитие.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida jamiyat taraqqiyoti va barqarorligining muhim omillaridan biri bu — yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligidir. Ijtimoiy faollik yoshlarga nafaqat o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etish, balki jamiyatning muhim masalalarida faol ishtirok etish imkonini ham yaratadi. Shu bois, yosh avlodni ijtimoiy jarayonlarga keng jalb etish, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga ko‘maklashish dolzarb

vazifalardan biridir. Ushbu mavzu doirasida yoshlar orasida ijtimoiy faollikni oshirishning ahamiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida so‘z yuritiladi.

Asosiy qism. Yoshlar ijtimoiy hayotning eng faol va harakatchan qatlamidir. Ularda mavjud bo‘lgan bilim olishga chanqoqlik, mehnatga intilish, yangilik yaratish kabi fazilatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridandir. Bu borada faqat davlat siyosati emas, balki diniy manbalar — Qur’oni karim, hadislar va islomiy meros ham yoshlarning faolligini rag‘batlantiradi.

Yoshlar faoliyati deganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lishi xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo‘lib uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirishlari va sifat ko‘rsatkichidir. Demak ijtimoiy faollik shaxsning muxim sifatidir. Yoshlar faolligi deb, uning hayotini boshqarish bilan, bog‘liq bo‘lgan va qadriyatlarining namoyon bo‘lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxsi sifati darajasining asosiy ifodasi bo‘lib, uning yuksak qadriyatidagi ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko‘rsatkichidir. Shu jihatdan shaxs faoliyati keng va kichik doirada o‘rganiladi.¹

Ijtimoiy faollik — bu individning yoki guruhning jamiyatdagi o‘zgarishlar, rivojlanishlar yoki muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishidir. Bu faoliyat turli shakllarda bo‘lishi mumkin: siyosiy, ijtimoiy, madaniy yoki iqtisodiy sohalarda. Ijtimoiy faollikning maqsadi jamiyatni yaxshilash, adolatni ta‘minlash, hamda turli ijtimoiy muammolarni hal qilishdir.

Bugungi kunda yoshlar orasida ijtimoiy faollikni oshirish dolzarb masalalardan biridir.

Ijtimoiy faol yosh — bu o‘z jamiyatida sodir bo‘layotgan voqealarga befarq bo‘lmagan, o‘z fikrini ochiq bildiradigan, tashabbus ko‘rsatadigan va amaliy harakat qiladigan shaxsdir.

Yoshlarning bunday faolligi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishni davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Bu boradagi asosiy huquqiy asos — bu “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-8 moddalarida keltirib o‘tilgan.

Mazkur qonunga binoan, davlat tomonidan yoshlar faolligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- Davlat yoshlarning tashabbuslari, innovatsion g‘oyalari, ijtimoiy loyihalari, volontyorlik va jamoatchilik ishlarida ishtirokini qo‘llab-quvvatlaydi.

- Mahalla va ta‘lim muassasalaridagi yoshlar yetakchilari, o‘quvchi va talabalar kengashlari faoliyati rag‘batlantiriladi. Bu ularni qaror qabul qilishda ishtirok etishga undaydi.

- Davlat yoshlar tashkilotlariga moliyaviy, axborot, metodik va tashkiliy ko‘mak beradi. Bu esa ularning ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishdagi rolini kuchaytiradi.

¹ ‘Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari’ Ismailov Berdiyev Rashidovich, O‘ZMU Ijtimoiy ish kafedrası 2- kurs magistri

- Yoshlar mukofotlari, stipendiyalar, faxriy yorliqlar orqali faol yoshlar moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladi.

- Turli forumlar, "Yoshlar kuni", "Yoshlar haftaligi" kabi tadbirlar orqali yoshlar o'z fikrini erkin bildiradi, bu esa ularning jamiyatdagi faolligini oshiradi.

Bu tashkilot yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi muhim tuzilma bo'lib, yoshlar faolligini oshirishga qaratilgan minglab loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, "Yoshlar daftari", "Yoshlar klublari", "Yoshlar balansi" kabi dasturlar faoliyatning real ifodasidir. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi faolligini oshirish — qonun bilan belgilangan ustuvor vazifadir. Bu orqali jamiyatda faol, mas'uliyatli va tashabbuskor avlodni shakllantirish ko'zda tutiladi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligi jamiyatning boshqa qatlamlari ijtimoiy faolligiday xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu eng avvalo yoshlarning jamiyatda tutgan mavqeining to'liq shakllanmaganligi bilan bog'liq. Yoshlar ijtimoiy tuzilmalarga kirish, ya'ni ijtimoiylashuv jarayonini boshdan kechiradilar. Ijtimoiy faoliyatning har bir soxasida yoshlarning ijtimoiy faolligi o'ziga xos xususiyatga ega. Shundan kelib chiqib, uni bir necha yo'nalishlarda: iqtisodiy ta'lim, ijtimoiy himoya ma'naviy-axloqiy xayot soxalarida o'rganish lozim. Ijtimoiy faollik deganda kishi qaysi kasbning egasi bo'lishidan, qanday lavozimda ishlashidan qat'iy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo'shishga, zamondan ortda qolmaslikka bo'lgan harakatini tushunish mumkin. Mana shu jarayonda u o'zini shaxs va fuqaro sifatida namoyon qiladi. Ijtimoiy faollik atamasi ijtimoiy munosabatlarning muayyan tizimida insonlarning intensiv faoliyatini belgilash uchun qanday bo'lsa, uni amalga oshirishga qobiliyatni belgilash uchun ham shunday ishlatiladi. Shunday qobiliyat bo'la turib, ijtimoiy faollik murakkab, integral fazilat sifatida mavjud. U qandaydir alohida xususiyatni, balki hayotiy faoliyat xususiyatlarining butun majmuini ifodalaydi. Ijtimoiy faollik murakkab jarayon bo'lib, insonda birdaniga vujudga kelmaydi.²

Xulosa. Yoshlar orasida ijtimoiy faollikni oshirish — bu jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala. Ular nafaqat o'zlarining shaxsiy taraqqiyotiga, balki atrofdagi jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sohalaridagi o'zgarishlarga ham katta ta'sir ko'rsatadilar. Ijtimoiy faollikni oshirish uchun ta'lim tizimini takomillashtirish, yoshlarni turli ijtimoiy loyihalar va tadbirlarga jalb etish, ularga o'z fikrini bildirish imkoniyatlarini yaratish, va yoshlar liderlarini qo'llab-quvvatlash zarur. Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida ijtimoiy mas'uliyat, qadriyatlar va etika ta'limini kuchaytirish ham muhimdir.

² <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarda-ijtimoiy-faollik-holati-va-amalga-oshirish-shakllari>

Natijada, faollikning oshishi yoshlar o'rtasida o'zgaruvchan dunyoga moslashish, yangiliklarga ochiqlik va jamiyatni yanada barqarorlashtirishga yordam beradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining 'Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida'gi Qonun.
2. X.Vohidov – Din va jamiyat. Oila mustahkamligi yo'lida, Toshkent Islom Universiteti nashriyoti 2021.
3. "Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari" Ismailov Berdiyori Rashidovich, O'ZMU Ijtimoiy ish kafedrası 2- kurs magistri
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarda-ijtimoiy-faollik-holati-va-amalga-oshirish-shakllari>